

## **Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari**

### **1-bob. Umumiy qoidalalar**

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va umume’tirof etilgan ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

2. **Ichki tartib qoidalari** - umumiy o‘rta ta’lim muassasasida xodimlar va o‘quvchilar tomonidan ta’limga oid normativ-huquqiy hujatlarda va muassasa Ustavida belgilab qo‘yilgan ta’lim jarayonida rioya etilishi shart bo‘lgan tartib va qoidalari.

**Odob-axloq qoidalari** - umumiy o‘rta ta’lim muassasasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida xodimlar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun belgilangan xulq-atvor me’yorlari.

3. Mazkur ichki tartib va odob-axloq qoidalari umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishidagi faoliyati bilan bog‘liq asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasasi jamoasi va o‘quvchilari rioya etishlari uchun majburiy hisoblanadi.

4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) ta’lim muassasasi rahbariyati, pedagog va texnik xodimlari (keyingi o‘rinlarda – jamoa a’zolari) hamda o‘quvchilari, ularning ota-onalari (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) uchun o‘zaro munosabatlarda odob-axloq, xulq-atvor me’yorlariga qo‘yiladigan minimal talablarni belgilaydi.

5. Ushbu Qoidalar umumiy o‘rta ta’lim muassasasida (keyingi o‘rinlarda – ta’lim muassasasi) ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, o‘qituvchi mavqeyining daxlsizligini e’tirof etish, do‘stona muhitni yaratish, o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, inson va uning huquqlariga hurmatni oshirish, odob-axloq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

6. Mazkur Qoidalar Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi ta’lim muassasalarida tatbiq etiladi, nodavlat va boshqa ta’lim muassasalari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

7. **Qoidalarning joriy etishdan maqsad** ta’lim muassasasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, o‘quvchilarga zamon talablari va milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish, shaxs va uning huquqlarini hurmat qilish, odob-axloq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o‘quvchilar sog‘lig‘ini saqlash, ta’lim muassasasi mulki, o‘quv jihozlari va xodimlar xavfsizligini ta’minlashga imkon beradigan do‘stona muhitni yaratishdan iborat.

8. Qoidalar jamoa a’zolarining ta’lim muassasasi hududida, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar, tanaffus vaqtlarida, ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq tadbirdarda o‘zlarini tutishini tartibga soladigan me’yorlar hisoblanadi.

9. Mazkur qoidalar jamoa a’zolari va o‘quvchilar uchun ta’lim muassasasi hududida majburiy hisoblanadi.

10. Qoidalarga amal qilish yuzasidan jamoatchilik, ota-onalar, ta’lim muassasalari pedagog xodimlari orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ibot qilinadi.

## **2-bob. Ichki tartib qoidalariga rioya qilishi**

11. Ta’lim muassasasida shaffoflik, hamjihatlik, o‘zaro ishonch, izzat-hurmat, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilish, zo‘ravonlikni oldini olish, do‘stona muhitni yaratish hamda ahil-inoqlik jamoa a’zolarining o‘zaro munosabatlardagi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

12. Ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar har bir o‘quvchiga e’tiborli munosabatda bo‘ladi, o‘qitish jarayonida barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlarni yaratadi va vujudga keladigan muammolarni, shu jumladan, nizoli holatlarni qonunlarga muvofiq tasdiqlangan (*va barcha manfaatdor tomonlarga ma’lum qilingan*) qoidalar, ta’lim muassasasining ichki tartibiga ko‘ra hal etadi. O‘quvchilar shaxsiga oid ma’lumotlar maxfiyligini saqlashga qat’iy amal qilinadi.

13. Irqi, millati, diniy e’tiqodi, jinsi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra, o‘quvchini o‘quv jarayonidan chetlatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu bilan birga, qoidalarni buzganlik majburiy ta’limdan chetlatishga yo‘l qo‘yilmaydi (Sud qarorlari bilan maxsus ta’lim muassasasiga yuborish holatlari bundan mustasno).

## **14. Jamoa a’zolari ta’lim muassasasida quyidagilarga rioya etishlari talab etiladi:**

- pedagog sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilgan holda o‘qituvchilar o‘zaro munosabatlarda bir-biriga “**Siz**” deb murojaat etishlari;

- rahbar, pedagog xodimlar o‘zaro munosabatlarda yagona jamoa sifatida hurmat, do‘stlik, hamjihatlik vaadolat tamoyillariga rioya etishlari;

- jamoa a'zolari orasida turli xil zo'ravonlik va kamsituvchi (bulling) xatti-harakatlariga yo'l qo'ymaslik;

- jamoa a'zolari tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali asosida ishga o'z vaqtida kelishlari;

- ta'lim muassasasi hududi va yo'laklarida o'ng tomonidan yurishlari;

- jamoa a'zolari bir-biriga duch kelganda salomlashishlari, bunda, kichik yoshdagilar katta yoshdagilarga birinchi bo'lib salom berishlari (*ushbu holatlarda qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar yoki xotin-qizlar birinchi bo'lib qo'l uzatganidan keyingina ularga javoban qo'l uzatishlari tavsiya etiladi*);

- jamoa a'zolari ish vaqtida erkin harakatlanish uchun qulay va estetik did bilan kasbga mos holda kiyinishlari;

- kiyimlarning toza va dazmollangan bo'lishi hamda kiyimlarning o'ta tor yoki o'ta keng bichimda bo'lmasligi;

- **erkaklar** mavsumga qarab – klassik uslubdagi shim, kostyum-shim (*imkon qadar qora, to'q ko'k rangdagi*), ko'ylak (*oq, havorang va shu kabi*), bo'yinbog‘, poyabzal (*qora rangda bo'lishi tavsiya etiladi*) kiyishi;

- **ayollar** mavsumga qarab – klassik uslubdagi yubka, kostyum-yubka (*imkon qadar qora, to'q ko'k rangdagi*), havo haroratiga qarab klassik uslubdagi shim (*imkon qadar qora, to'q ko'k rangdagi*), tanani ochiq ko'rsatib turmaydigan kofta (*oq, havorang va shu kabi*), ko'ylak, past poshnali poyabzal (*qora rangda bo'lishi tavsiya etiladi*) kiyishi;

(*Muassasa ustavi bilan ta'lim muassasasi rahbariyati va pedagog xodimlari formasining rangi va qo'shimcha belgilariga mazkur nizom talablaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*)

- umume'tirof etilgan milliy an'analarga, shakllarga va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga zid kelmaydigan yoki sport (*dars jarayonida maxsus yoki sport kiyimida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari o'qituvchilarining yurishiga ruxsat beriladi, shuningdek, ta'lim muassasasi hududida o'tkaziladigan turli sport va ko'ngilochar tadbirlar bundan mustasno*) kiyimlarida bo'lmasligi;

xodimlarning **tashqi ko'rinishi** bo'yicha quyidagi talablar belgilanadi:

- tanasining ochiq qismiga tatuirovka tushirilmagan yoki pirsing qilinmagan bo'lishi, sochi tartibga keltirilgan va yorqin (*g'ayrioddiy*) ranglarga bo'yalmagan bo'lishi;

- ayollar quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar taqib yurmasligi, yuzini ko'zga tashlanadigan darajada pardoz qilmasligi, tirnog'ini uzun qilib o'stirmasligi;

- xodimlar boshqa tashkilotlar xodimlari bilan xizmat doirasidagi o'zaro samarali hamkorlikka erishish uchun o'zlarining namunali xulq-atvorini namoyon etishi;

- xodimlar o'z faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari;

- har bir xodim o'zining pedagogik va psixologik sohadagi ko'nikma va bilimlarini doim takomillashtirib borishi, shu bilan birga, malakasini hamda

professionallik darajasini oshirishga ko'mak beradigan tadbirdarda muntazam ishtirok etishlari;

- jamoada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tanishib borishi va ularga og'ishmasdan amal qilishi, mavjud barcha standartlar, bayonlar, tavsiyalardan xabardor bo'lishi hamda professionallik darajasini oshirib borishi;

- mehnat faoliyatini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelganda pedagog xodimga hamkasblariga yordam so'rab murojaat qilishi yoki unga murojaat qilgan hamkasblariga yordam berishi;

- o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat, ishonch va shaffoflik tamoyillariga asoslanishi;

- xodimlar bir-biriga kasb etikasi doirasida hurmat bilan munosabatda bo'lishi, o'z bilim, ko'nikma hamda tajribalarini beminnat va beg'arez ulashishga tayyor bo'lishi;

- jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatda tanqidiy fikrlarni to'g'ri va asosli qabul qilishi, tanqid qilayotgan xodimning zarur va kerakli tavsiyalariga rioya qilishi;

- ta'lismuassasasi rahbari ta'lismuassasasi faoliyatining shaffof va ochiq ravishda tashkil etishi masalalari yuzasidan fuqarolar (ota-onalar) murojaatini ko'rib chiqishda alohida e'tibor qaratishlari shart.

15. Ta'lismuassasasi hududida jamoa a'zolarining ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan munosabatlari o'zaro hurmat va xushmuomalalik tamoyillariga asoslanishi lozim, biror bir taraf tomonidan boshqasining shaxsiyatiga zo'ravonlikni aks ettiruvchi va kamsituvchi (bullying) xatti-harakatlarning sodir etilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- mutasaddi tashkilotlar va ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ta'lismuassasidagi dars jarayoniga aralashishiga qat'iyan yo'l qo'yilmaydi, tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan har qanday nizoli vaziyatlar faqatgina muassasa rahbariyati (direktor va uning o'rinbosarlari) hamda muassasa psixologgi bilan dars jarayoniga xalaqit bermagan holatda hal etiladi;

- ota-onsa va pedagog o'rtasida shunday ziddiyat ro'y bergan holda o'qituvchi ta'lismuassasasi ma'muriyatiga xabar beradi;

- tomonlar yuqoridagi talablarga rioya etmagan holatlarda vaziyatni barqarorlashtirish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakili va ta'lismuassasiga biriktirilgan ichki ishlar organlarining inspektor-psixologiga murojaat etiladi;

- ta'lismuassasasi o'quvchi manfaatlari yo'lida oshkor etilishi kerak bo'lgan barcha ma'lumotni o'quvchining ota-onasiga (oilasiga) kelishilgan holda yetkazishi;

- o'qituvchi mamlakatda, jamiyatda, ta'lismuassasasida va sinfdagi mavjud qadriyatlar, an'analar hamda madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishga

intilishi;

- o‘qituvchi ta’lim muassasasi, oila va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda pozitiv va faolligini namoyish etishi lozim.

#### **16. O‘quvchilarga ta’lim muassasasida quyidagilar taqiqlanadi:**

- ta’lim muassasasi Ustavida belgilangan formadan tashqari qiyofada, jumladan, o‘g‘il bolalar kalta shim, futbolka, shippakda va qiz bolalar kalta, ochiq, tor va tanani shaffof ko‘rsatuvchi kiyimda kelishi hamda bo‘yni va barmoqlariga turli xil taqinchoqlar taqishi;

- o‘zaro munosabatlarda inson shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish (bulling), haqorat qilish va behayo so‘zlarni ishlatsi, turli xil (jismoniy, ruhiy va boshqa) zo‘ravonlik ko‘rsatish;

- qonun bilan taqiqlangan, milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo‘limgan yoki ta’lim muassasasining ichki munosabatlariga tegishli, shuningdek, ta’lim muassasasi va o‘qituvchi obro‘sini tushirishga qaratilgan munosabatlar aks etgan audio hamda videomateriallarni turli ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishi yoki undan turli g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanishi;

- dars jarayonida quloqchinlar (*naushnik*) orqali uyali aloqa vositalari va turli xil audio qurilmalardan foydalanishi, dars jarayonini uyali aloqa vositasining kamerasi orqali suratga olishi;

- ta’lim muassasasi kompyuterlarida ta’lim muassasasiga tegishli bo‘limgan ma’lumotlarni, shuningdek, qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘limgan turli videomateriallar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi, pornografik xarakterdagi har qanday video, audio va fotomateriallarni tayyorlash, saqlash, foydalanish va targ‘ib etish.

17. Ta’lim muassasasi hududida har bir o‘quvchi o‘z uyali aloqa vositalarini o‘chirib qo‘yishi, pedagog va texnik xodimlar hamda tashrif buyuruvchi boshqa shaxslar o‘z uyali aloqa vositalari qurilmalarini chaqiruv ovozini to‘liq o‘chirib qo‘yishi (“*Ovozsiz*” holatga o‘tkazishi) shart.

Ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari va tadbirdar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirdari) boshlanishidan oldin ta’lim oluvchilar telefonini o‘chirib qo‘yishi hamda telefonini sumkasiga solib qo‘yishi shart (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydag‘i 139-soni qarori bilan tasdiqlangan “Ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom”*).

18. O‘quvchi tomonidan ogohlantirilishiga qaramasdan dars jarayonida telefondan foydalanish holatlari davom etgan holatda sinf rahbari va muassasa rahbariyati o‘quvchining telefoni (smartfon, planshet va boshqa qurilmalar) o‘rnatilgan tarzda olib qo‘yiladi, holat yuzasidan o‘quvchining ota-onasi ogohlantiriladi. Holat bo‘yicha inspektor-psixolog tomonidan o‘quvchining ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ni Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi va kuzatuv kengashlari doirasida muhokama etilib, tegishli tushuntirishlar olib borgandan

so‘ng telefon (mobil aloqa vositalari) o‘quvchining ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ga qaytarib beriladi.

Shunday holat o‘quv yili davomida takrorlanganda o‘quvchi ichki ishlar organlarining profilaktik ro‘yxatiga olinadi.

### **19. O‘qituvchilarga quyidagilar taqiqlanadi:**

- jamoa a’zolari va boshqalarning shaxsiyatini, qadr-qimmatini kamsitish, ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik ko‘rsatish;

- o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlaridan asossiz chiqarib yuborish yoki kiritmaslik;

- “Chiqish” qo‘ng‘irog‘i chalingandan keyin o‘quvchilarni sinfxonada ushlab o‘tirish;

- ta’lim muassasasiga va dars mashg‘ulotlariga spirtli ichimliklar iste’mol qilgan, soch-soqolni tartibga keltirmagan va kiyinish odobiga rioya qilmagan holda kelish;

- ta’lim muassasasi hududi va binosida spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish;

- muassasa hududi va binosida o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasiga aloqasi bo‘lмаган turli xil tadbirdar (*tug‘ilgan kun, yubiley, iftorlik va boshqa tadbirdar bilan bog‘liq bayramona dasturxonlar*)ni tashkil etish;

- ta’lim muassasasida o‘tkaziladigan barcha tadbirdar va ularga tayyoragarlik ishlari dars mashg‘ulotlari vaqtida o‘tkazilishi taqiqlanadi.

20. Ta’lim muassasasi rahbariyati va pedagog xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha hamkorlik qilishda bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o‘tkazishiga yoki shunga harakat qilishiga, shuningdek, adolat tamoyillariga yoki ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo‘lgan qarorlar tayyorlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

21. O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlari “Ustoz-shogird” an’anasi asosida tartibga solinadi.

O‘qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan har bir dars mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga oid hayotiy misollar bilan boyitishga e’tibor qaratadi.

O‘qituvchilar metod kunlari mактабда o‘z ustida ishlashi, o‘z faniga oid yangiliklar bilan muntazam tanishishi va dars jarayonlariga tatbiq etishi, mактаб jamoat ishlarida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

22. Ta’lim muassasasida dars mashg‘ulotlarining boshlanishi va tugashi “Kirish” va “Chiqish” qo‘ng‘iroqlari bilan tartibga solinadi. “Kirish” qo‘ng‘irog‘i dars boshlanganligini bildiradi, u chalinishi bilan barcha o‘quvchilar dars jadvalida belgilangan tegishli sinf xonalariga fan o‘qituvchilaridan oldin kirishadi.

23. Ta’lim muassasasida o‘tkaziladigan dars mashg‘ulotlari boshlanishida:

o‘qituvchi sinfga kirib kelishi bilan o‘quvchilar hurmat yuzasidan o‘rinlaridan turgan holda kutib olishlari, bir ovozdan “Assalomu alaykum” (*rus tili yoki chet tili fanlarida tegishli tilda salomlashish*) deb salom berishlari;

o‘qituvchi “Va alaykum assalom” (*rus tili yoki chet tili fanlarida tegishli tilda salomlashish*) deb alik olishlari va uning ruxsatidan so‘ng o‘quvchilar

o‘rinlariga o‘tirishlari, bunda 1-4-sinf o‘quvchilari o‘quv kunining birinchi dars soatida, 5-11-sinf o‘quvchilari har bir darsda sinfga kirgan fan o‘qituvchisiga xuddi shunday tartibda munosabatda bo‘lishi lozim.

24. Ta’lim muassasasida “Chiqish” qo‘ng‘irog‘i chalinishi bilan o‘quvchilar o‘qituvchining ruxsati bilan sinf xonasini tark etadilar. O‘z navbatida, o‘qituvchi dars mavzusini akademik soat reglamentiga muvofiq to‘g‘ri taqsimlashi talab etiladi.

O‘qituvchi sinfdan chiqayotganda o‘quvchilar o‘rinlaridan turishlari, “Xayr, salomat bo‘ling!” deb hurmat ko‘rsatishlari lozim.

Dars vaqtida o‘quvchiga o‘qituvchining ruxsatisiz sinf xonasidan chiqib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

#### **25. O‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan munosabatda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:**

- o‘quvchilarni jazolash maqsadida ularga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;
  - ichki tartib va kiyinish madaniyatiga rioya qilmaydigan o‘quvchilarni sinfdoshlar yoki muassasa jamoasi oldida muhokama qilmaslik;
  - o‘quvchilar tomonidan uyg‘a vazifani bajarmay kelgan o‘quvchini ommaviy izza qilish holatlarini uyushtirmaslik;
  - chet elga noqonuniy ravishda chiqib ketgan o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muassasa rahbariyatidan yashirmaslik;
  - o‘quvchining ota-onasi yoki qonuniy vakillari bilan shaxsiy adovatga bormaslik;
  - mazkur qoidalarga rioya qilishda o‘quvchilarga ibrat bo‘lib, shaxsiy namuna ko‘rsatish, ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lish;
  - ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish;
  - biror-bir noxush voqeа yoki hodisa ro‘y bersa, zudlik bilan ta’lim muassasasi rahbariyatini xabardor qilish;
  - ta’lim muassasasining sha’ni va nufuziga dog‘ tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;
  - ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro‘siga ziyon yetkazish uchun yoki o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmaslik;
  - mazkur qoidalarni barcha ta’lim muassasalarida har oyning birinchi haftasi juma kunlarida o‘tkaziladigan “Ma’naviyat va ma’rifat soat”larda keng tushuntirib borish;
- yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni zararli odatlardan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta’sirlardan, past saviyali “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borish.

#### **26. Ota-onalarga belgilangan talablar:**

- ta’lim muassasasi ichki tartib qoidalari bilan tanishish;

- o'qituvchi sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, dars jarayonlarida aralashmasliklari, pedagoglarni haqorat qilmasliklari;
- farzandini dars jarayonida ta'lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishini nazorat qilish;
- farzandini darslarga to'liq qatnashishini (davomat) hamda fanlar bo'yicha ish daftarlari va ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan boshqa barcha jihozlar bilan ta'minlash;
- farzandini muassasaga darslik, o'quv qurollari bilan kelishini ta'minlash;
- farzandining ta'lim olishiga to'sqinlik qilmaslik, uning ta'lim muassasasiga o'z vaqtida kelishi, darsdan keyin farzandini bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- sinf rahbari va fan o'qituvchilari bilan farzandining xulqi va davomati yuzasidan aloqada bo'lish;
- farzandi darslarga kelmay qolishi mumkin bo'lgan paytlarda ta'lim muassasasiga (sinf rahbariga) uning sabablarini bildirgan holda ma'lum qiladi;
- ta'lim muassasasining taklifiga asosan muassasada o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishi, suhbat va turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish.

### **3-bob. Odob-axloq qoidalariiga rioya qilishi**

27. O'quvchilarning odob-axloq qoidalariiga rioya etish talablari:

**a) ta'lim muassasasi binosi va uning hududida:**

- ta'lim muassasasiga mashg'ulotlar boshlanishidan 10-15 daqiqa oldin, ta'lim muassasasi Ustavida belgilangan o'quvchilar formasida kelish.

Bunda, davlat umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida maktab formasi 2022-2023-o'quv yildidan boshlab bosqichma-bosqich, 2025-yildan boshlab esa to'liq joriy etilishini inobatga olish;

- toza va orasta kiyinish, sochlarni ozoda va tartibga keltirilgan holda tutish;
- o'zidan kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish, kattalarga esa hurmat ko'rsatish;
- o'qituvchilar va ta'lim muassasasiga kelgan mehmonlar bilan uchrashganda salom berish;
- ta'lim muassasasi mulki (*parta, stol, stul, doska, o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokazolar*) va o'quv jihozlari (*kompyuter texnikasi, laboratoriya jihozlari, sifxonalarlardagi stend va bannerlar*)ga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish;
- ta'lim muassasasi mulkiga zarar yetkazilgan hollarda ota-onalar (*ularning o'rnini bosuvchi shaxslar*) tomonidan qoplanishi;
- ta'lim muassasasi yo'laklarida tinchlikni saqlash, ichki tartib va odob-axloq qoidalariiga qat'iy rioya qilish;

- ta’lim muassasasiga o‘quv-qurollari, dars jadvalida belgilangan darsliklar va daftalar bilan kelish (*o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan zarur o‘quv qurollarining bo‘lishi*);

- ta’lim muassasasi hududida telefonini o‘chirib, (*smartfon, planshet va boshqa qurilmalar*) portfel yoki sumkasi va shu kabilarga solib qo‘yish;

chiqindilarni muassasa binosi va hududidagi maxsus belgilangan idishlarga tashlash;

**b) dars mashg‘ulotlarida:**

- tegishli darslik va zarur o‘quv qurollari bilan ishtirok etish;

- vaqtini va diqqatini o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan maqsadlarga sarflash va qaratish;

- o‘qituvchiga murojaat qilmoqchi yoki savoliga javob bermoqchi bo‘lganda qo‘lini ko‘tarib ruxsat so‘rash;

sanitariya-gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish;

**d) tanaffusda:**

- o‘z o‘qish joyini toza saqlash va tartibga keltirish;

- navbatdagi dars bo‘ladigan sinf xonasiga o‘z vaqtida o‘tish;

- fan o‘qituvchisining ko‘rsatmasi bo‘yicha sinfni kelgusi darsga tayyorlash;

- katta tanaffus vaqtida navbatchi o‘quvchilar tomonidan sinf xonasining tozaligini ta’minlash;

**e) ta’lim muassasasi oshxonasida:**

- ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘llarini yuvish;

- umumiy ovqatlanish joylarida belgilangan tartib qoidalarga rioya qilish;

- taomlarni olishda “navbatga turish” tartibiga rioya qilish va imkonli boricha ijtimoiy masofani saqlash;

- tirbandlik holatida ustozlar, o‘zidan kichiklarga va qizlarga hurmat ko‘rsatish;

- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;

- issiq va suyuq ovqatlarni olishda va iste’mol qilishda ehtiyyotkor bo‘lish;

- oshxonadan olingan ovqat va ichimliklarni oshxonaning o‘zida iste’mol qilish;

- ovqatlangandan so‘ng idishlarni yig‘ishtirib qo‘yish;

**f) ta’lim muassasasi kutubxonasida:**

- kutubxona xodimlari bilan xushmuomalada bo‘lish;

- kitoblar va jihozlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish;

- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariiga rioya qilish;

**g) sport zali (*majmuasi*)da:**

- sport zaliga xos bo‘lgan kiyim va poyabzalda kirish;

- sport inventarlaridan oqilona va samarali foydalanish;

- mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;

- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga to‘liq rioxva qilish.

## **28. O‘quvchilarga odob-axloq qoidalari doirasida quyidagilar taqiqlanadi:**

### **a) ta’lim muassasasida va uning hududida:**

- o‘zgalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish;

- dars mashg‘ulotlari vaqtida ta’lim muassasasi hududida sababsiz yurish;

- ta’lim muassasasi yo‘laklari, sinf xonalari, oshxona va kutubxonasida asossiz ravishda baland ovozda gaplashish;

- ta’lim muassasasi hududida baland ovozda so‘zlashish, qog‘oz va boshqa chiqindilarni (*belgilangan joylardan tashqarida*) qoldirib ketish;

- muqovasida ma’naviyatga zid bo‘lgan tasvirlar tushirilgan yozuv daftarlardan foydalanish;

- turli narkotik va psixotrop moddalar, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish hamda tarqatish;

- ta’lim muassasasi hududiga turli xil pirotexnika vositalari, pnevmatik qurollar, o‘tkir kesuvchi va tig‘li buyumlarni olib kelish;

- uyali aloqa vositalari orqali “ommaviy madaniyat”, turli xil yot g‘oyalarni targ‘ib etuvchi va terroristik-ekstremistik xarakterdagi audio va video materiallar hamda pornografik xarakterdagi ma’lumotlarni ko‘rish va tarqatish, kiberbullingni o‘tkazish;

- uyali aloqa vositalarini bo‘yniga osib olishi, ko‘ylak, shim, yubkalari cho‘ntaklarida va shu kabilarda saqlash;

### **b) dars mashg‘ulotlari (sinf xonalari)da:**

- dars vaqtida o‘rinsiz gaplashish, ovqatlanish, saqich chaynash;

- qog‘oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketish;

- mashg‘ulotlar yakunlangunga qadar ta’lim muassasasi hududidan o‘qituvchilar ruxsatisiz tashqariga chiqish;

- yozma ishlari va oraliq nazoratlarni bajarish vaqtida chetdan yordam so‘rash;

- boshqa o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirish;

- telefonidan (*smartfon, planshet va boshqa gadget qurilmalar*) foydalanish, uni parta ustiga qo‘yish.

## **4-bob. Rag‘batlantirish va ta’sirchan choralar ko‘rish tartibi**

29. O‘quv yili davomida yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, namunaviy xulqi va jamoat ishlari dagi faolligi uchun hamda mazkur ichki tartib va odob-axloq qoidalariga to‘liq rioxva qilgan, ta’lim muassasasida ijobjiy sog‘lom

muhitning qaror topishiga va yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a'zolari quyidagicha moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi:

- mahalla raislari bilan birgalikda namunali ota-onalarga "**minnatdorchilik xati**"ni yuborish;
  - ta'lim muassasasi buyrug'i bilan o'qituvchilarga "Faxriy yorliq", "tashakkurnoma" e'lon qilish, ularni tarmoq va davlat mukofotlariga tavsiya qilish;
  - esdalik sovg'alar bilan taqdirlash;
  - muassasa radiouzel va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilish;
  - "Eng faol o'quvchi", "Eng faol sinf" nominatsiyasi bilan taqdirlash;
  - o'quvchilarning yashash manziliga, ularning ota-onasining ish joyiga yoki mahalla fuqarolar yig'iniga tashakkurnoma yuborish;
- "**Har bir nuroniy – o'smir yoshlarning g'amxo'r murabbiyi**" tamoyili asosida tarbiyasi og'ir o'quvchilar mahallada katta hurmatga ega bo'lgan nuroniylarning tarbiyasiga biriktirish.

### **30. O'quvchilar ichki tartib va odob-axloq qoidalarini buzgan taqdirda ko'rildigan choralar:**

- o'quvchining qog'oz yoki elektron kundaligiga tanbeh yozish;
- qoida buzilish holatlari takroran kuzatilganda, o'quvchini muassasa ichki nazorat ro'yxatiga olish va yakka tartibda shug'ullanish;
- ota-onasi (*ularning o'rnini bosuvchi shaxslar*)ni muassasaga taklif qilish, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi jamoat kengashi doirasida muhokama qilish;
- farzandi tarbiyasiga mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan ota-onalar (*ularning o'rnini bosuvchi shaxslar*)ning ish joyiga yoki mahalla fuqarolar yig'iniga ma'lumot yuborish;
- ota-onasi (*ularning o'rnini bosuvchi shaxslar*)ga nisbatan muassasaga biriktirilgan inspektor-psixolog tomonidan tegishli ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llash.

31. Mazkur qoidalarga rioya etmaganlik holatlari ta'lim muassasasidagi Kuzatuv kengashlarida ham muhokama qilinishi mumkin.

32. Ta'lim muassasasiga biriktirilgan inspektor-psixolog odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha pedagog-xodimga nisbatan intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (*mavjud emasligi*) to'g'risida dalolatnama tayyorlanadi.

Qoidalar buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda qoidani buzgan pedagog xodimni javobgarlikka tortish to'g'risida muassasa rahbariga taklif kiritiladi. Bunda yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda pedagog xodimga nisbatan odob-axloq qoidalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

pedagoglar o'zлари yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni

taqdim etish, shuningdek muassasaning qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

33. Jamoa a'zolari ichki tartib va odob-axloq qoidalarini buzganida ularga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

#### **4-bob. Yakuniy qoidalar**

34. Mazkur qoidalar bilan har o'quv yili boshida o'quvchilarning ota-onasi (*yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar*)ga hamda ta'lim muassasasi pedagog xodimlari tanishtiriladi (*tanishtirish varaqasi namunasi ilova qilinadi*).

35. Odob-axloq qoidalarida aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan nizoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

36. Mazkur Qoidalar ta'lim muassasasi hududida amal qilinishi lozim bo'lgan minimal talablar hisoblanib, muassasa tomonidan qabul qilinadigan Ustavda ushbu qoidalar qat'iy belgilangan holda kiritiladi va uning ijrosi shaxsan ta'lim muassasasi rahbari tomonidan ta'minlanadi.

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari”ga  
ILOVA

**“Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari”  
bilan maktabning pedagogik jamoasi, o‘quvchilar va ularning  
ota-onalarini tanishtirish**  
**JADVALI**

**a) pedagogik jamoa uchun**

\_\_\_\_\_ viloyati \_\_\_\_\_ tumani \_\_\_\_-sonli maktab pedagogik jamoalari qoidalari bilan tanishtiriladi.

**Ichki tartib va odob-axloq qoidalari bilan tanishdim va unga rioya etilishini ta’milayman.**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi (dars berayotgan fani)	Imzo (tanishganligi to ‘g’risida)
1.			
2.			
3.			
.....			

**b) ota-onalar uchun**

\_\_\_\_\_ viloyati \_\_\_\_\_ tumani \_\_\_\_-sonli maktabning \_\_\_\_-sinf o‘quvchilarining ota-onalari qoidalari bilan tanishtiriladi.

**Ichki tartib va odob-axloq qoidalari bilan tanishdim va farzandim hamda Men unga rioya etilishini ta’milayman.**

T/r	O‘quvchining F.I.SH.	Ota-onasining familiyasi, ismi sharifi	Imzo (tanishganligi to ‘g’risida)
4.			
5.			
6.			
.....			